



Bargi boru guli yo'q, guli boru bargi yo'q:

Qoraqobiq o'simligining tuzilishi, tinim davri, hayot sikli va xususiyatlari

Nargizaxon Ibrohimova Iqboljon qizi

Andijon davlat universiteti biologiya ta'lim yo'nalishi talabasi

Annotasiya: Ushbu maqola Qoraqobiq (qoravaroq) o'simligining tuzilishi va xususiyatlari haqida.

Kalit so'zlar: Qoraqobiq, tinim davri, chuchmomadoshlar, O'zbekiston fanlar akademiyasi, alkaloidlar, galantamin, Omonqora qoraqobig'i

Qoraqobiqlar (Ungernialar)- chuchmomadoshlarga mansub ko'p yillik piyozboshli o'tlardir. Ularning piyozboshi tuxumsimon, uzunligi 7-10 sm, usti ko'p qavatli qoraqo'ng'ir qobiqlar bilan o'ralgan. Uning nomi aynan shu xususiyati bilan bog'liq. Barglari qalin, keng, qalami, eni 1-2 sm, uzunligi esa 25-40 sm, har bir piyozboshdan martning birinchi yarmidan boshlab 10-12 tagacha barg o'sib chiqadi va ular aprelning ikkinchi yarmida voyaga yetadi.

Qoraqobiqlar O'rta Osiyo uchun hos o'simliklar bo'lib boshqa yerda uchramaydi. Ular asosan adirning yuqori qismida va tog'larda o'sib, har xil ko'lamdagi qoraqobiqzorlarni hosil qiladi. Qoraqobiqzorlarni, ayniqsa, mart oyida va aprelning birinchi yarmida uzoq-uzoqlardan ham ko'rish mumkin. Chunki bu davrda tog' yonbag'rlaridagi boshqa o'tlar hali yaxshi o'smagan bo'lib, qoraqobiqlar ko'k-yashil "orolchalar" shaklida juda aniq ko'rinadi. Lekin iyunga kelgach bu qoraqobiqzorlardan asar ham qolmaydi. Chunki yomg'irli fasllar tugab saratonning issiq kunlari boshlangach, uning barglari qurib shamolda uchib ketadi, bu payt o'simlik piyozi yozgi "uyquga" kiradi.

Avgustning ikkinchi yarmi va sentabr boshlarida tog'lar, kechalari ancha salqin bo'lib, ba'zi yerlarga uncha-muncha yomg'ir ham yog'ib o'tadi. Bu davrda qoraqobiq yana "uyg'onadi". Lekin piyozboshdan endi ko'k yashil burglar emas, balki sarg'ish bargsiz poya o'sib chiqadi. Bu poyaning uchida 7-9 ta gul ochiladi. Qoraqobiq mevasi sentabrning oxirida pishadi. Urug'I tarqalib bo'lgach, uning poyasi ham quriydi va qoraqobiq ikkinchi bor "uyquga" kiradi.

Demak O'rta Osiyo sharoitida o'sadigan ko'p yillik o'simliklar bir yilda faqat bir marta qishki uyquga kirsam, qoraqobiqlar ikki marta, yozgi va qishki uyquga kiradi.

O'zbekiston Fanlar Akademiyasi O'simlik moddalari kimyosi institutida olib borilgan ilmiy tadqiqotlar natijasida qoraqobiqlarning ildizi, bargi va mevalarida ko'p



miqdorda alkaloidlar borligi aniqlangan. Qoraqobiqlardan ajratib olingan alkaloidlardan galantamin alkaloidi alohida o'rinni egallaydi. Bu alkaloid hammasidan ko'ra omonqora qoraqobig'ida (*Ungernia viktoris*) ko'proq bo'ladi. Uning bargidagi galantamin miqdori 0,15% ga yetadi.

Galantamin preparati poliomielit kasalligining qoldiq holatlarini davolashda foydalaniladi.

O'zbekistonda foydali o'simliklar bilan bir qatorda zaxarli o'tlar ham oz emas. Bunday o'tlardan ko'pincha uy hayvonlari va ba'zan odamlar ham zaxarlanishlari mumkin. Zaxarli o'simliklar Respublikamizning turli burchaklarida tabiiy sharoitda va ekin maydonlarida uchrab turadi.

Foydali va zaxarli o'tlarni tanish, ularning hususiyatlari nimada ekanligini bilish, bunday o'simliklardan kasallanishning oldini olish va ularga qarshi samarali kurash choralarini bilish, o'simliklar florasidan unumli foydalanishga undaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Dorivor o'simliklar florasini va sistematikasi ; L.A. Botirova, D.M. Tagayeva; Guliston-2021.-100 bet
2. O'simliklar morfologiyasi; o'quv qo'llanma; I.V.Belolipov, A. Sheraliyev, K.X. Buhorov, A.M. Islamov; Toshkent,2007-99 bet
3. O'zbekiston florasini 1-6 tom
4. Qiziqarli botanika; M. Nabiyeu; T. Odilov; O'. Prator; G'. Shermator; Toshkent-1975

Internet manbalari

5. www.ziyonet.uz;
6. www.floranimal.ru.
7. www.fizrast.ucoz.ru